

## DALA AMALIYOTINING BOTANIKA FANINI O’QITISHDAGI ROLI

*Abdullayeva Nilufar Sagdullayevna*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti*

*Almamatov Jasur Mirza o’g’li*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti stajyor o’qituvchi*

### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada botanika dala amaliyotining o’rganilishi va talabalar kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati bayon etilgan. Dala amaliyotini botanika fanini o’qitishdagi roli tavsif etilgan.

**Kalit so’zlar:** talaba, tabiat, o’simlik, biologik ta’lim, dala amaliyot, botanika, kasbiy kompetensiya, flora, gerbariy, ekskursiya.

Respublikamizda bo’layotgan ijobiy o’zgarishlar ta’lim sohasida ham ma’lum yangiliklar, tubdan o’zgarishlar bo’lishini taqazo etadi. Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash printsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma’suliyat yuklaydi. Shu boisdan biologik ta’lim jarayonida ham katta ishlar olib borilmoqda. Biologik ta’limning rivojlanishida talabalarga ta’lim berish jarayonida turli pedogagik texnologiyalardan foydalanish talabalar bilim darajasini oshishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada botanika o’quv dala amaliyoti mashg’ulotlarida qo’llaniladigan pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda o’rganish va ushbu jarayonda talabalarni kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish uslublari ochib berilgan.

Botanika fanini o’qitishda nazariya va amaliyotning birligi, uzviy bog’liqligi qonuni, talabaning o’qitish jarayonida bilim, tushincha, malakalarni egallashi va mustahkam o’zlashtirishiga erishish, olgan bilimlarni amaliyotga qo’llash ko’nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Vaholanki, chuqur bilim va ko’nikmaga, kasbiy malakalarga ega kadrlarni tayyorlashda ushbu tadqiqot ishi hozirgi zamon talablariga javob beradigan biologiya o’qituvchisini etishib chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunga ko’ra, biologiya fanlarini o’qitishda dala amaliyotida ta’lim berish metodikasini shakllantirish va talabalarni kasbiy-metodik rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega[1;].

Jahonda o’quv dala amaliyot darslarini o’rganish bo’yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko’rsatadiki, mutaxassisligidan kelib chiqqan holda talabalarning nazariy ta’limini amaliyot bilan bog’lab tashkil qilinsa, samaradorlik yuqori darajada

ortadi. Bu borada, botanika fani bo'yicha amaliyot ishlari olib borilganda o'simliklarning xayotiy shakli, tashqi muhitga moslashishi, sistematik va morfologik xususiyatlari, shuningdek, tarqalish qonuniyatlari, uchrash sharoiti, anatomik va morfologik moslashishini ko'rib o'rganish talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Bu ularning ilmiy salohiyati yanada o'sishiga olib keladi. Shunga ko'ra, biologik bilimlarni dala amaliyotida individuallashtirib berish, obektlarni ixtisoslashtirilgan holatda o'rganish metodologiyasini rivojlantirish va talabalarning ilmiy salohiyatini baholash alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir.

Botanika o'quv dala amaliyotlarini tadbiiq etish bo'yicha tahlillar ko'zga ko'rinarlidir. Xususan, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida o'quv-dala amaliyotida talabalar bilan olib boriladigan tashkiliy ishlar va ulardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha E.Babenkova, I.Pavlov, S.Ogoyukina, N.Mitrofanova, L.Zagidullina, V.Danilevskaya, A.Yakovleva, M.Dudoladova, O.Bendina, S.Dzidzoeva, L.Anisova, R.Bagirova, Yu.Maksimova, E.Subbotina, M.Sherbakov, V.Tagirova, S.Grippa, V.Nenaxov, V.Agafonov, V.Malchenko, L.Puchkov, E.Shlevkova kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borgan[2;].

Xorijiy davlatlarda biologiya ta'limi jarayonida o'quv-dala amaliyotidan foydalanish, elektron ta'limni joriy etish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, virtual laboratoriya mashg'ulotlarini ishlab chiqish muammolari K.Hornby, P.Mary, G.Gunnil, A.Fernandez, M.Hovvel, H.Deborah, V.Diana, M.Linda, A.Ben, H.Rania, J.Cogan va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan[1;].

Biologiya fanini o'qitishda talabalarning eksperimental tadqiqot ishlarining turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu ko'rgazma eksperiment, laboratoriya va amaliy ish, ekskursiyalar, fenologik kuzatishlar, dala amaliyotlari, ekspeditsiyalar va yozgi topshiriqlar. Har bir shakl o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi, bu individualizatsiya darajasi va tashkilotning murakkabligi, bajarilgan ishlar ko'lami va talabalarni faol ishlarga jalb qilishning kengligi bilan farq qiladi[3;].

Botanikadan o'tkazilayotgan o'quv-dala amaliyoti bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Oliy o'quv yurtlarining tabiatshunoslik fakulteti talabalari o'quv rejasiga kiritilgan o'quv dala amaliyoti, bu nazariy kurslarni o'rganish jarayonida olingan bilimlarni chuqurlashtirish, nazariy olgan bilimlarini amalda qo'llash, talabalarni kasbga yunaltirishga qaratilgan. Bu talabalarning biologik va ekologik dunyoqarashining shakllantirishga, estetik tarbiyasiga xizmat qiladi.

Dala amaliyoti jarayonida flora va faunaning xilma-xilligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, biosenozlarni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bio-xilmaxillikning ahamiyati, ayniqsa, XXI-asrda, tabiatni antropogen ta'siridan qutqarish

masalasi nihoyatda muhim bo'lgan vaqtda, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari ongiga ushbu muammolarning yechimini toppish vazifalarini yuklamoq zarur.

Botanikadan dala amaliyoti davrida talabalarda o'simliklar olamidagi o'zgarishlar, ularning xilmaxilligi, tashqi muhitga nisbatan moslashganligi bevosita tabiatga kuzatishlar va ekskursiyalar o'tkazish ko'nikma va malakalari shakllanadi.

Botanika o'quv dala amaliyoti talabalarning kuzatish qobiliyatini, tabiatda sayohat qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, botanikada ilmiy tadqiqot olib borishga qiziqishni oshiradi va uni yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tabiatda ayrim o'simliklar turlari va o'simliklar qoplami bilan tanishish, ma'lum uslubiy ko'nikma hosil qilish o'quv-dala amaliyoti davomida shakllanadi.

O'quv-dala amaliyoti jarayonida talabalarining asosiy e'tibori quyidagi, vazifalarga qaratilishi kerak:

1. O'simliklarni yig'ish va tayyorlash texnikasini o'rganish, botanik kolleksiyalar tayyorlashda ayrim o'simliklar ob'ektlarni fiksatsiya qilish usullarini o'rganish (qumda quritish, ho'l preparatlarda o'simlikning tabiiy qiyofasini saqlash va hakoza);

Botanikadan olingan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash; o'simlikni morfologik jihatdan xatosiz tahlil qilish, sistematik holatini-to'g'ri aniqlash bo'yicha ko'nikma hosil etish hamda ularning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish;

O'simliklarning o'sishi gullashi, changlanishi, ko'paiishi bo'yicha dala sharoitida fenologik kuzatish olib borishning sodda yo'lini o'rgatish, o'tkazilgan kuzatish natijalarini rasm. sxema, jadval, o'lchovlarda aks. ettirish;

O'simliklarning xilma-xilligi ularning tuzilishi va biologik xususiyatlari va ularning ekologiyasiga, yashab turgan muhit sharoitiga bog'liq ekanligiga ishonch hosil etish;

Talabalarni florani saqlashga o'rgatish, uning go'zalligidan bahramand bo'lish va qo'riqlash ruhida tarbiyalash, ularning egallamoqchi bo'lgan kasbiga nisbatan qiziqishni o'yg'otish;

O'quv-dala amaliyoti davomida tabiatni muhofaza qilishga, ayniqsa amaliyot o'tkazilayotgan joydagi gulli o'simliklarning muhofazasiga alohida e'tibor berish kerak. O'simliklarni tasvirlash, aniqlash va ulardan gerbariylar yig'ilganda ushbu amaliyot o'tilayotgan hudud o'simliklari florasiga iloji boricha zarar keltirmaslik lozim.

Talabalar faqat keng tarqalgan o'simlik turlarinigina yig'ish zarur. Talabarlarni noyob o'simlik turlari bilan tanishtirilganda ulardan xech qachon gerbariy tayyorlamasliklari, guldastalar qilmasliklarini - ta'kidlash lozim. O'qituvchilar oldindan o'quv-dala amaliyoti o'tilayotgan hududning «Qizil kitobi» ga kiritilgan noyob o'simliklari ro'yxatni tuzgan bo'lishlari va ana shunday o'simliklardan gerbariy yig'maslik, ular o'sib turgan joylarga zarar etkazmaslik choralarini ko'rishlari, bunday

o‘simliklarning faqat fotosuratni olish mumkinligi haqida talabalarga ma'lumot berish kerak.

Botanikadan olib boriladigan o‘quv-dala amaliyotining mazmuni o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan ekskursiyalar davomida-yoritiladi. O‘qituvchining ma'ruza suhbat talabalarning mustaqil kuzatishlari bilan bog‘lab olib borilishi kerak.

Ekskursiya davomida yig‘ilgan barcha materiallar mashg‘ulotlarda qayta ishlanadi. Yozgi dala amaliyoti davomida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarining muhim vazifalaridan biri yig‘ilgan kolleksiyalarni montirovka qilinishidir.

Amaliy mashg‘ulotlarning - birinchi kunidanoq talabalarning mashg‘ulotga muhabbatini uyg‘otish kerak. Tayyorlangan kolleksiyalarning mazmuni ularga manzur bo‘lishi, estetik jihatdan talabga to‘la javob berishi zarur. amaliy ishlarida o‘simliklarni aniqlashning dastlabki ko‘nikmalari hosil qilinadi. Botanikadan o‘tkaziladigan o‘quv-dala amaliyotining yana bir muhim tomoni talabalar tomonidan ilmiy-tadqiqot xarakteridagi mavzulariga doir vazifalarni berilishidir. Bu ishlar bilan ekskursiya davomida va bo‘sh vaqtlarda yoki maxsus kunlarda alohida shug‘ullanadi. Talabaga mavzular uning qiziqishi va imkoniyatlariga qarab aniq topshiriqlarni, shartlarni hisobga olgan holda berilishi kerak va keyinchalik ushbu mavzu kurs ishi, malakaviy bitiruv ishi uchun asos qilib olinishi va kengaytirilishi mumkin.

O‘quv-dala amaliyoti talabalarda biosferaning asosiy tuzilish birliklari - biogeotsenoz, biotsenoz va fitotsenozlarning mazmun-mohiyati, o‘simliklarning o‘zaro ta’siri, o‘simliklarning hayvonot olami vakillari va tashqi muhit (ekologik) omillari bilan munosabatlari to‘g‘risida tasavvur va tushunchalar shakllanishiga xizmat qiladi.

Talabalar botanika fanidan o‘quv-dala amaliyotining barcha muhim jihatlarini o‘qituvchi rahbarlarida amalga oshiriladigan ekskursiyalar, mustaqil ish va kuzatishlarni bevosita tabiiy sharoitda o‘tkazish va bajarish hamda to‘plangan ma'lumotlarni xona sharoitida qayta ishlash davrida o‘rganadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv dala amaliyotlarining botanikani o‘qitishdagi ahamiyati:

- Botanikadan o‘tkazilayotgan o‘quv-dala amaliyoti bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

- Botanikadan olib boriladigan o‘quv-dala amaliyotining mazmuni o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan ekskursiyalar davomida-yoritiladi. O‘qituvchining ma'ruza suhbat talabalarning mustaqil ko‘zatlari bilan bog‘lab olib borilishi kerak.

- Talabalarga nazariy darslardan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari va iqtidorini amalda namoyon etishga keng imkoniyatlar beriladi.

- Botanika o'quv dala amaliyotida o'tkazilgan ekskursiyalar talabalarning mo'ljal olish, ob'ektlarni tanish, hodisalarni kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga imkon yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Онгаров Мансурбек Байрамбекович Ўқув дала амалиётида талабаларнинг касбий методик тайёргарлигини ривожлантириш технологиялари. дисс...б.ф.ф.д. (PhD) Нукус. 2022.
2. Unarova Nozima. Dala tadqiqotlarida o'simliklarni o'rganish tarixi. Xalqaro anjuman materiallari. Science and education in the modern world: Challenges of the xxi century" Nur-Sultan, Kazakhstan, february 2022.
3. Унарова Н. РОЛЬ ПОЛЕВОЙ ПРАКТИКИ В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ / Н. Унарова, Н.С. Абдуллаева//Химия, физика, биология, математика: теоретические и прикладные исследования: сб. ст. по материалам XLIX Международной научно-практической конференции «Химия, физика, биология, математика: теоретические и прикладные исследования». – № 6(38). – М., Изд. «Интернаука», 2021.
4. Unarova N, Abdullayeva N. S. O'quv dala amaliyoti mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish. Journal of Natural Science” №5/3 2021 y. <http://natscience.jspi.uz>